


6.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Ro'yxatga olindi:

No BD – 5311600 – 3.1

“26 05 2018 yil



KONCHILIK ISHI ASOSLARI

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	300 000	- Ishlab chiqarish texnik sohasi.
Ta'lim sohasi:	310 000	- Muhandislik ishi.
Ta'lim yo'nalishilar:	5311600	- Konchilik ishi: (foydali qazilmalarni boyitish); (ochiq konchilik ishlari) (ko'mirni konlarini qazib olish); (yer osti konchilik ishlari).
	5312300	- Marksheyderlik ishi

Toshkent – 2018

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2018 yil "14 06" dagi "531" -sonli buyrug'ining 10 - ilovasi bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan.

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashining 2018 yil "26 05" dagi ___ - sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fan dasturi Toshkent davlat texnika universitetida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

- | | |
|--------------|---|
| Kodirov V.R. | - TDTU «Konchilik ishi» kafedrasi katta o'qituvchi; ; |
| Xasanov A.R. | - «O'ZGEORANGMETLITI» DUK, ilmiy bo'lim, kat.ilm.xod. |

Taqrizchilar:

- | | |
|----------------|---|
| Raximov D.V. | - «O'ZGEORANGMETLITI» DUK, bo'limi boshlig'i, t.f.n.; |
| Petrosov Yu.E. | -TDTU «Konchilik ishi» kafedrasi dosenti, t.f.n. |

Fan dasturi Toshkent davlat texnika universitet Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2017 yil "29 12" dagi 9 - sonli bayonnomasi).

I. O'quv fanining dolzarbliji va oliy kasbiy ta'limdiagi o'rni
Oliy ta'lifning Davlat ta'lif standartiga ko'ra "Muhandislik ishi" sohasida o'qitiladigan "Konchilik ishi asoslari" fani dasturini o'rganish bakalavriaturadagi mutaxassislik fanlari, ekologiya mineralogiya, geomexanika va boshqa umuminjenerlik fanlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, bakalavrлarning barcha mutaxassislik fanlaridan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi talab etildi hamda kelajakda yetuk mutaxassis tayyorlashga zamin xozirlaydi.

II. O'quv fanini maqsadi va vazifasi

"Konchilik ishi asoslari" fani umumkasbiy fanlar tarkibiga kiradi. O'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr: bilimlarning bir butun tizimi bilan o'zaro bog'liqlikda ushbu fanning muammolari; foydali qazilma konlarini er ostidagi xavflligi, kon lahilarining buzilishlari, tabiiy va texnogen omillarning ta'siri, mustahkalagich materiallarining iqtisodiy sarfi, ochiq kon ishlarining chuqurlashgan sari xarajatning oshishi, qoplama tog' jinsini miqdori oshish kabilarni o'z ichiga oladi. Talaba "Konchilik ishi asoslari" fanidan kon korxonalarini, ularning vazifasi, tuzilishi, bo'lib o'tadigan jarayonlar haqida umumiy ma'lumot, shaxta va karyer maydonida ochish ishlari tushunchasi, ochish sxemasi, foydali qazilmalarni boyitishning o'mi va usullari tanlay bilishi kabi tajribaga ega bo'lishi kerak.

«Konchilik ishi asoslari» fani umumkasbiy fan hisoblanib 3,4-semestrarda o'qitiladi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejulashtirilgan matematik va tabiiy ilmiy fanlar (oliy matematika, informatika va axborot texnologiyalari, fizika, nazariy mexanika), umumkasbiy fanlar (geodeziya, chizma geometriya, chizmachilik va muxandislik grafikasi, geologiya, konchilik ishlari asoslari, amaliy mexanika, burg'ilash portlatish ishlari) fanlaridan etarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lisligi talab etiladi.

Fanning ilm-fan, iqtisodiyot va ishlab chiqarishdagi o'rni

Konchilik korxonalarida konchilik ishlarini loyihalash, konchilik ishlarini bexatar olib borish, yer qa'ridan oqilona foydalanish ishlari kon ishlari asoslari tadbirlari asosida amalga oshiriladi.

Shuning uchun ham "Konchilik ishi asoslari" faniga alohida talablар qo'yiladi. Jumladan, konchilik sanoati kompleksi va asosiy elementlari, kon lahimlari barpo qilish asoslari, ruda konlarini yer osti

usulida qazib olish asoslari, qatlamlı konlarni er osti usulida qazib chiqarish asoslari, foydali qazilma konlarini ochiq usulda qazib olish asoslari, foydali qazilmalarini qayta ishslash va boyitish asoslari konchilik ishlarining ajralmas qismidir.

Fanni o'qitishdagi zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar hamda o'quv mashg'ulotlarini loyihalash

Yo'nalishning o'ziga xos xususiyatlari dasturni interaktiv usullarda o'zlashtirishni taqozo qiladi. Bunda asosiy e'tibor auditoriya mashg'ulotlarida va mustaqil ishda o'zlashtiriladigan chuqurlashtiriladigan nazariy bilimlarga, hamda ob'ektiv jarayonlar va hodisalarga nisbatan dunyoqarashni shakllantirishga qaratiladi; dunyoqarashni shakllantirishda ma'ruza mashg'ulotlariga katta o'rinn ajratiladi.

Dasturiy materiallarni o'zlashtirish to'rt xil:

- muammoli tasnidagi mavzular bo'yicha;
- mustaqil o'zlashtirilishi murakkab bo'Igan bo'limlar bo'yicha;
- ta'lif oluvchilarda alohida qiziqish uyg'otuvchi bo'limlar bo'yicha;
- oldinga siljigan (prodvinutbie) ma'ruzalarni interfaol usulda o'qish yo'li bilan;
- mustaqil ta'lif olish va ishslash, kollokviumlar va munozaralar jarayonida o'zlashtiriladigan bilimlar bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish yo'li bilan amalga oshirishni nazarda tutadi.

Mustaqil ish jarayonida talaba ta'lif texnologiyalariga oid adabiyotlar, internet materiallari bilan ishslashni uddalashini namoyon qilishi, auditoriya mashg'ulotlari paytida qabul qilgan axborotni to'g'ri mushohada qilish qobiliyatini ko'rsatishi zarur.

Dastur talabalar bilimini reyting-nazoratidan foydalanadigan o'quv jarayonini tashkil qilishning yangi prinsiplari asosida amalga oshadi.

III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

1-modul. Konchilik sanoati kompleksining asosiy elementlari

- | | |
|---------|---|
| 1-mavzu | Konchilik sanoati va konchilik korxonalarini |
| 2-mavzu | Kon jinslari va foydali qazilmalar to'g'risida asosiy ma'lumotlar. Foydali qazilma konlarining shakllari va yotish elementlari. |
| 3-mavzu | Foydali qazilmaning zaxiralari va qazib olish jarayonida yo'qotish |

- | | |
|----------|--|
| 4-mavzu | Kon lahimlari |
| 2-modul. | Kon lahimlarini barpo qilish asoslari |
| 5-mavzu | Kon jinslari mexanikasi va asosiy xususiyatlari |
| 6-mavzu | Mustahkamlagich materiallari. Kon lahimlari mustahkamlagichi. |
| 7-mavzu | Kon lahimlarini o'tish usullari va texnologiyasi. Gorizontal va qiya lahimlarini o'tish. |
| 8-mavzu | Kon lahimlarini yumshoq, bir tartibli va ko'p tarkibli jinslardan o'tish. Kon lahimlarini o'tish texnologik pasporti. |
| 3-modul. | Ruda konlarini yer osti usulida qazib chiqarish asoslari |
| 9-mavzu | Ruda konlarining umumiyl tavsifi va o'ziga xos xususiyatlari |
| 10-mavzu | Ruda yo'qotilishi va sifatsizlanishi |
| 11-mavzu | Ruda konlarini ochish va qazishga tayyorlash. Asosiy ishlab chiqarish jarayonlari. |
| 12-mavzu | Rudani ikkilamchi maydalash, blokdan tushirish va tashish gorontiga etkazib berish. |
| 13-mavzu | Ruda shaxtalarida kon bosimini boshqarish va qazish. Umumshaxta texnologik bo'linmalari. |
| 4-modul. | Qatlamlari konlarni er osti usulida qazib chiqarish asoslari. |
| 14-mavzu | Dunyo yoqilg'i-energetika balansining holati va O'zbekiston ko'mir konlari to'g'risida ma'lumot |
| 15-mavzu | Shaxta va shaxta maydoni, shaxtalarni metan bo'yicha kategoriyalarga ajratish. Shaxta maydoni zaxiralari, ko'mir yo'qotilishi va konlarni qazib chiqarish bosqichlari. |
| 16-mavzu | Shaxta maydonini qismlarga ajratish, tayyorlash va qazib olish tartibi. |
| 17-mavzu | Shaxta maydonini ochish usullari va ularning tasnifi |
| 18-mavzu | Shaxta maydonidagi stvollar soni, ularni joylashtirish va shamollatish sxemalarining o'zaro bog'liqligi |
| 19-mavzu | Yotiq, qiya qatlamlarni bir va ko'p gorizontli sxema bo'yicha ochish usullari. |
| 20-mavzu | Gorizontal qatlamlarni ochish. Qatlamlarni qiya stvollar, shtolnyalar va aralash usullarda ochish. |
| 21-mavzu | Qatlamlari konlarni qazish tizimlari va ularning tasnifi. Qalin qatlamlarni tabaqalarga ajratib qazish tizimi. |
| 5-modul. | Foydali qazilmalarini ochiq usulda qazib chiqarish asoslari |
| 22-mavzu | Ochiq kon ishlari va ularga tegishli asosiy belgilari to'g'risida umumiyl ma'lumotlar |

23-mavzu	Kon jinslarining texnologik xossalari va ochiq usulda qazib olinadigan konlarning yotish elementlari
24-mavzu	Kon-texnik ma'lumotlar va karyer elementlari
25-mavzu	Kon jinslarini qazishga tayyorlash
26-mavzu	Qazib-yuklash ishlari
27-mavzu	Karyer transporti
28-mavzu	Ag'darma hosil qilish.
29-mavzu	Karyer maydoni va uni ochish.
30-mavzu	Konlarni ochiq usulda qazib chiqarish tizimlari.
31-mavzu	Karyer maydonini rekultivasiya qilish
6-modul. Foydali qazilmalarni qayta ishlash va boyitish asoslari	
32-mavzu	Turli foydali qazilmalardan foydalanishda boyitishning tutgan o'mni
33-mavzu	Boyitish jarayonlari va texnologik ko'rsatkichlari
34-mavzu	Foydali qazilma massasini bo'lak o'lchamlari bo'yicha saralash va granulometrik tarkibi
35-mavzu	Maydalash to'g'risida umumiylar ma'lumotlar va maydalash vositalari.
36-mavzu	Foydali fazilmalarni boyitish usullari

IV. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar ko'mir va ruda konlarining yotish elementlarini o'rghanish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni hosil qiladilar. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan uslubiy ko'rsatmalar va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilimlarini amaliy masalalar echish orqali ko'nikmalarga aylantiradilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalarni o'zlashtirish asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqlolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, masalalar echish, mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

V. Laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Fan bo'yicha laboratoriya ishlari namunaviy o'quv rejada ko'zda tutilmagan.

- ()
- VI. Kurs ishi bo'yicha uslubiy ko'rsatma va tavsiyalar**
- Kurs ishi talabalarni mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantiradi. Kurs ishi talabaning tanlab olgan mavzusi va kursni olib boruvchi o'qituvchi tomonidan berilgan vazifa asosida bajariladi.
- Kurs ishi quyidagi asosiy masalalarni taxlil etgan holda bajariladi va xulosa bilan yakunlanadi.
 - Konlarni yer bag'rida joylashishini kon-texnik va kon-geologik sharoitlarii taxlili.
 - Konni ochish va qazib olishga tayyorlash sxemasini asoslash.
 - Kavjoyda qazish jarayonlarini asosiy ko'rsatkichlarni hisoblash.
 - Mehnatni tashkil etish modelini tuzish va uni tahlili.
 - Qazish uchastkasini texnologik sxemalari jarayonlarini tanlash va ularni asosiy ko'rsatkichlarii hisoblash.
 - Kurs ishi ko'rib chiqilgan texnologik jarayonlar va sxemalarni afzalligi va nuqsonlarini ko'rsatgan xulosa bilan yakunlanadi.
- Kurs ishi topshiriqlari kafedrada ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

VII. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Ushbu o'quv fani bo'yicha talabaning mustaqil ishi ma'ruzalar matni va tavsiya etilgan adabiyotlar bilan ishlashni, amaliy mashg'ulotlar va laboratoriya ishlarni o'tishga tayyorgarlik ko'rishni, sinov natijaiga ishlov berishni hamda muayyan mavzular bo'yicha referatlar yozishni o'z ichiga oladi.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:

- kon jinslari va ularning asosiy fizik-mekanik xususiyatlari;
- foydali qazilma konlari zaxiralarining kategoriyalari va ularning mohiyati;
- foydali qazilma konlari samaradorlik ko'rsatkichlari;
- kon korxonalarini ishlab chiqarish quvvatini va ishlash muddatini aniqlash tamoillari;
- konlarni qazib olishda foydali qazilmalarni yo'qotish va sifatsizlanish omillari;
- foydali qazilma konlarini ochish usullari va ularni qo'llanish sharoitlari;
- shaxta (karyer) maydoni va uni qazishga tayyorlash usullari;
- kon bosimi, uni boshqarish usullari, kon lahimlarini mustahkamlash va mustahkamlagich materiallari;

- konlarni qazib olishda burg'ilab-portlatish ishlari;
- portlatish ishlarini atrof muhitga ta'siri;
- konlarni yer osti usulida qazish tizimlari va ularing tasnifi;
- konlarni ochiq usulda qazish tizimlari va ularni qo'llanish sharoitlari;
- konlarni shamollatish, suvsizlantirish ishlari va ularda qo'llanadigan texnik vositalar;
- kon lahimlari, ularning ko'rinishlari, shakllari va o'tish usullari.

VIII. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari

Asosiy adabiyotlar:

1. Sagatov N.X., Aripova L.T., Petrosov YU.E., Djabbarov M.N. Ochiq kon ishlari texnologiyasi va komplek mexanizasiyalash. O'quv qo'llanma.–T.:Kamalak press, 2015. 296 b.
2. Sagatov N.X. Kon ishlari asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: TDTU, 2005.
3. Sagatov N.X., Meliulov A.D., Shamirzaev X.X. Foydali qazilma konlarini yer osti usulida qazish. O'quv qo'llanma. – T.: TDTU, 2004.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining lavozimiga kirishish tantalali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi.-T.: "O'zbekiston" NMIU, 2016. -56 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruza. 2016 yil 7 dekabrь –T.: "O'zbekiston" NMIU, 2016. -48 b.
3. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilanbirga qo'ramiz. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. -488 b.
4. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Xarakatlar strategiyasi to'g'risida. 2017 yil 7 fevralь, PF-4947-son farmoni.

Internet saytlari

1. <http://www.mggu.ru> – Moskva Davlat konchilik universiteti.
2. <http://www.rusmet.ru/minjournal/> – «Gorniy jurnal».
3. <http://www.mining.ite-uzbekistan.uz/ru/>
4. <http://www.ziyonet.uz>
5. <http://www.ngmk.uz>